



## YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA JAHON TAJRIBASI

Ruslan Sharipov Baxtiyor o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti magistri.

**Annotatsiya:** Yashil iqtisodiyot - o'sish va rivojlanish uchun optimal qarash hisoblanib, atrof-muhit, ijtimoiy farovonlikni oshirish, iqtisodiy rivojlanish va insonlar hayotini yaxshilashga yordam bera oladigan tushunchadir. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish va undagi mavjud muammolar, mamlakatlar iqtisodiyoti va atrof muhitning bir biriga bog'liqligi hamda yashil o'sish uchun iqtisodiy asoslar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv iqtisodiy o'sish, eko-iqtisodiy ajralish, jigarrang iqtisodiyot, naflilik, inklyuziv o'sish indeksi, tabiiy kapital, barqaror biznes muhiti, yashil texnologiya, bioxilma-xillik, institutsional salohiyat.

### KIRISH

Yashil iqtisodiyot hozirgi kundagi tengsizlikni kuchaytirib boruvchi, isrofgarchilikni va resurslar tanqisligini keltirib chiqaradigan hamda atrof-muhit va inson salomatligiga tahdidlarni oshiradigan iqtisodiy modelga muqobil hisoblanadi. So'nggi o'n yil ichida yashil iqtisodiyot konsepsiysi ko'plab hukumatlar uchun strategik ustuvor vazifa sifatida paydo bo'ldi va bu maqsadlar barqarorlikni rivojlantirishga va urbanizatsiya, resurslarning kamayishi, iqlim o'zgarishi va iqtisodiy beqarorlik kabi XXI asrning muhim muammolarini hal qilishga qaratilgan.

### ASOSIY QISM

1960-yillardan boshlab Malte Faber, Nikolas Georgesku-Roegen, Kennet Boulding va Herman Deyli kabi ekolog iqtisodchilar va tadqiqotchilar cheklangan tabiiy resurslarni hisobga oladigan, barqaror rivojlanish va avlodlar o'rtaqidagi tenglik masalalarini tahlil qiladigan iqtisodiyotni ishlab chiqdilar. So'nggi paytlarda olib borilgan tadqiqotlar tabiiy resurslar cheklangan va doimiy ravishda tugaydigan tizimda iqtisodiy o'sishning potensial tugashi haqida munozaralarni kuchaytirdi. Ushbu munozaralar hozirgi dunyo e'tiborida bo'lgan quyidagi dolzarb muammolarni qamrab oladi: iqtisodiy o'sishning tabiiy hayot va resurslarga zararli ta'siri, ortib borayotgan chiqindilar va ifloslanish, iqlim o'zgarishi, ijtimoiy tengsizlik va h.k.. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar yanada barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash, o'ta qashshoqlikni bartaraf etish, tengsizlikni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilishni maqsad qildi. Bunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- innovatsiyalarni rag'batlantirish, ishlab chiqarishning yangi usullarini yaratish va ekologik muammolarni hal qilish;
- resurslar va tabiiy boyliklardan foydalanish samaradorligini oshirish;



- yashil texnologiyalarga talabni kuchaytirish va yangi bozorlarni yaratish;
- mamlakatning investitsion jozibadorligini ta'minlash orqali investorning ishonchini oshirish;
- yanada muvozanatlashgan makroiqtisodiy sharoitlarni ta'minlash va h.k<sup>6,7,8</sup>

Yashil iqtisodiyotga o'tish butun dunyo iqtisodiyotini o'zgartirishni talab qiladi, bu esa katta miqdordagi investitsiyalar, siyosat islohotlari, innovatsiya va turli tomonlama hamkorlikni talab qiladi. McKinsey kompaniyasi tomonidan olib borilgan yangi tadqiqotga ko'ra, yashil iqtisodiyotga o'tish dunyoga yillik qo'shimcha 3.5 trillion dollarlik xarajatlar tug'diradi, bu esa jahon korxona foydalarining yarmiga, dunyo soliq daromadining choragiga va oila xarajatlarining 7 foiziga teng. Biroq, yashil iqtisodiyotga o'tish -

<sup>6</sup> <https://sdgpulse.unctad.org/inclusive-growth/>

<sup>7</sup> [Why does green economy matter? | UNEP - UN Environment Program](#)

<sup>8</sup> [Green Economy - What do we mean by green economy? By Doreen Fedrigo-Fazio and Patrick ten Brink](#)



iqtisodiy o'sish, bo'sh ish o'rirlari yaratish, ijtimoiy inklyuzivlik va atrof-muhitni himoya qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.<sup>9</sup>

1-diagramma. Yashil iqtisodiyotga o'tishni tashkil etuvchi ustunlar<sup>10</sup>

#### YASHIL RIVOJLANISH UCHUN IQTISODIY ASOS

Klassik o'sish nazariyasiga ko'ra (Solou 1956) mahsulot (Y) - texnologiya (A), jismoniy kapital (K) va mehnat (L) yordamida ishlab chiqariladi. Munosabatni quyidagicha yozish mumkin:

$$Y = f(A, K, L).$$

Ishlab chiqarish hajmining o'sishi ishlab chiqarish omillari (jismoniy kapital va mehnat) va texnologik o'zgarishlar, shu jumladan amaliyotdagi o'zgarishlar mahsulorligining oshishi natijasida yuzaga keladi. Bunday yondashuvda atrof-muhit ishlab chiqarish jarayonida umuman rol o'ynamaydi. Iqtisodiy ishlab chiqarish bevosita tabiiy resurslar zahirasi va atrof-muhit sifatiga bog'liq, ya'ni atrof-muhit ishlab chiqarish funksiyasidagi argumentdir - degan g'oya Britaniyalik iqtisodchi olim Tomas Maltus (1798) davridan beri mavjud. Uning g'oyalari 1970-yillarning boshlarida paydo bo'lgan atrof-muhit iqtisodiyoti adabiyotlarida yanada rivojlantirildi. Bunday yondashuvda atrof-muhit iqtisodiy ishlab chiqarish va o'sishda "tabiiy kapital"ga aylanadi. Shunday qilib, ishlab chiqarish funksiyasini quyidagicha qayta yozish mumkin:

$$Y = f(A, K, L, E), \text{ bu yerda } E - \text{atrof-muhitni (tabiiy kapital) ifodalaydi.}$$

Biroq, yashil o'sish siyosatining ta'sirini tahlil qilish uchun (yashil) o'sish modellari - bozordagi kamchiliklar va iqtisodiyot optimal muvozanatda emasligini hisobga olgan holda modifikatsiyalanishi kerak. Birinchi modelda ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi bilan almashtiriladi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi deganda yuqori samaradorlikka asoslangan holda mavjud texnologiya, jismoniy kapital, mehnat va atrof-muhit bilan mumkin bo'lgan maksimal ishlab chiqarish darajasi tushuniladi. Shunda haqiqiy ishlab chiqarish:

$Y = \Psi f(A, K, L, E)$ ,  $\Psi$  - bu yerda (0 dan 1 gacha bo'lgan qiymat) ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini o'lchaydi.

Ikkinci model - atrof-muhitga bag'ishlangan islohotlar va harakatlar( $P_E$ ) sifatida qaralishi mumkin:

$$Y = \Psi(P_E) f[A(P_E), K(P_E), L(P_E), E(P_E)].$$

Yuqoridagi holatda, ekologik siyosat iqtisodiy ishlab chiqarish( $\Psi$ , A, K, L, E) bilan uyg'unlashgan holda ko'proq samara beradi. Eng birinchi o'rinda, farovonlik muhim ahamiyat kasb etadi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar

<sup>9</sup> "The cost and opportunity of a green transition" by McKinsey (2023, April)

<sup>10</sup> [UNEP](#) ma'lumotlariga asoslangan holda muallif tomonidan mustaqil ishlanma

\*Eko-iqtisodiy ajralish - bu atrof muhitga bosim va zararni oshirmsandan iqtisodiy o'sishga erishishdir.

hajmi emas. Bu shuni anglatadiki, model ishlab chiqarishning farovonlikka (yoki naflilik, inglizcha utility, U) ta'sirini hisobga olishi kerak. Investitsiyalar farovonlikni to'g'ridan-to'g'ri oshirmaganligi sababli, naflilikni faqat joriy iste'mol darajasiga (C) va atrof-muhitning(E) bevosita ta'siriga qarab modellash mumkin:

$$U = u(C, E).$$

Amaliyotda, ekologik islohotlar naflilikka yalpi iste'mol yoki atrof-muhit bilan bog'liq bo'lman omillar orqali to'g'ridan-to'g'ri (ijobiy yoki salbiy) ta'sir qilishi mumkin. Shunday qilib, naflilik funksiyasini quydagicha yozish mumkin:

$$U = u(C, E, P_E).$$

Taqsimlanish (umumiyl iste'mol shaxslar o'rtasida taqsimlanishi) va o'zgaruvchanlik (umumiyl iste'mol vaqt o'tishi bilan taqsimlanishi) farovonlikka ta'sir qiladi hamda ekologik islohotlar esa ularga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.<sup>11</sup>

Ayni paytda biz tarixdagi eng murakkab va keng tarqalgan ekologik muammolarga duch kelayotganimizni inkor etib bo'lmaydi. Aholining tez o'sishi, iqlim o'zgarishi, urbanizatsiyaning kuchayishi va barqaror bo'lman iste'mol - bularning barchasi atrof-muhitga bo'lgan bosimning hamda er, suv va energiya resurslari uchun mojarolarning kuchayishiga olib keldi. Ushbu muammolarga samarali yechim topish uchun iqtisodiyot va atrof-muhitning o'zaro bog'liqligini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, bu qiyin va murakkab vazifa bo'lib, juda ko'p omillarni hisobga olishni talab etadi. Masalan, ekologik ta'sirlar (biologik xilma-xillikka, inson salomatligiga, ekotizim funksiyasiga, iqtisodiy ishlab chiqarishga ta'siri), siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, texnologik ta'sirlar, institutsional samaradorlik va h.k.


1-rasm. Iqtisodiyot va atrof muhit taqqoslanishi (UNCTAD, x – iqtisodiyot, y – atrof muhit. Doiralar o'lchami mamlakatlarning inklyuziv o'sish indeksini\*\* ifodalaydi)<sup>12</sup>

Atrof-muhit ko'rsatkichi rivojlanayotgan mamlakatlarni iqtisodiyotdan ko'ra ko'proq ajratib turadi. Masalan, Bangladesh va Lesoto iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha deyarli bir xil ballga ega (taxminan 8 ball), ammo atrof-muhit ko'rsatkichi bo'yicha mos ravishda 50 va 25 ball. Aksincha, rivojlangan mamlakatlar uchun, iqtisodiy ko'rsatkich o'rtasidagi tafovut atrof-muhit ko'rsatkichiga qaraganda yuqoriqoq.

<sup>11</sup> [Inclusive Green Growth - The Pathway to Sustainable Development, World bank](#)

<sup>12</sup> [SDG Pulse 2022 by UNCTAD](#), 225-bet

\*\*Inklyuziv o'sish indeksi – mamlakatlarning gender tengligi, iqtisodiyoti, farovonligi va atrof muhit ko'rsatkichi. UNCTAD konseptsiyasiga ko'ra indeks 27ta indikatorlardan iborat.



Atrof-muhit ko'rsatkichi bo'yicha bir xil 40 ballga ega bo'lgan Islandiya va Moldova Respublikasi iqtisodiy ko'rsatkich bo'yicha mos ravishda 82 va 12 ball natija ko'rsatdi. Atrof-muhit ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori o'rirlarni egallagan 5ta rivojlangan davlatlar quyidagilar: Lyuksemburg (100), Malta (71,4), Buyuk Britaniya (68,8), Irlandiya (68,2) va Shveytsariya (67,7). Maldiv orollari (70,5), Singapur (69,0) va Seyshel orollari (68,6) rivojlanayotgan mintaqadagi yetakchi 3 ta davlatadir. Bu, asosan, suv unumdarligi va energiya kuchi hamda ularning yaxshi ishlashi bilan bog'liq.<sup>13</sup>

### XULOSA

Yashil iqtisodiyot nafaqat orzu qilingan qarash, balki XXI asrda barqaror rivojlanishga erishish uchun amalga oshiriladigan zarur strategiyadir. U ekologik iqtisodiyot, ekologik axloq, yashil o'sish va aylanma iqtisodiyotning nazariy asoslariga asoslanadi. Yashil iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, u issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, resurslar samaradorligini oshirish, yashil ish o'rirlarini yaratish, inson farovonligini oshirish va biologik xilma-xillikni saqlash kabi ko'plab foyda keltirishi mumkin. Biroq, siyosiy iroda, institutsional salohiyat, moliyaviy resurslar, texnologik innovatsiyalar kabi ba'zi qiyinchiliklar va to'siqlarni yengib o'tish kerak. Shu sababli, yashil iqtisodiyotga o'tish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun barcha manfaatdor tomonlar, jumladan, hukumatlar, biznes, fuqarolik jamiyati va ilmiy doiralar o'rtasida global sheriklik va hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Jahon rivojlanishini olib qaralsa, uning umumiylig xususiyati namoyon bo'ladi, ya'ni, bugungi dunyo sivilizatsiyasi kuch to`plagan, o'z qudratining eng yuqori nuqtasiga yetgan vaqtida barcha mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishda ekologik yo'naltirilgan model tanlanmas ekan, globallashuv sharoitida butun sayyoraning asta-sekin tanazzulga yuz tutishi va butunlay yo`q bo`lib ketishgacha borish xavfi yuzaga keladi.

<sup>13</sup> Stark contrasts in inclusive growth – progress towards equal opportunities needed everywhere – UNCTAD SDG Pulse 2023



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://sdgpulse.unctad.org/inclusive-growth/>
2. [Why does green economy matter? | UNEP - UN Environment Program](#)
3. [Green Economy? By Doreen Fedrigo-Fazio and Patrick ten Brink](#)
4. "The cost and opportunity of a green transition" by McKinsey (2023, April)
5. [UNEP ma'lumotlariiga asoslangan holda muallif tomonidan mustaqil ishlanma\(What do we mean by green economy?\)](#)
6. [Inclusive Green Growth - The Pathway to Sustainable Development, World bank](#)
7. [SDG Pulse 2022 by UNCTAD, 225-bet](#)
8. [Stark contrasts in inclusive growth – progress towards equal opportunities needed everywhere – UNCTAD SDG Pulse 2023](#)